O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK:392.5:17.022(575.1)

Ro‘zi KOMILOV,
DSc, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand, O‘zbekiston
E-mail: ro‘zikomilov@00

Professor O.G‘aybullayev taqrizi asosida

YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY NIKOH MAROSIMLARINI AXLOQIY-ESTETIK QADRIYATGA AYLANTIRISH VAZIFALARI

Annotatsiya

Nikoh marosimlari oila qurishga yo‘l va ungacha bo‘lgan xursandchilik belgisi to‘y sanaladi. O‘zbek nikoh marosimlari to‘y bilan chambarchas bog‘liq. Unda zamonaviylik va an’anaviylik uyg‘un holda madaniyatning rivojlanishiga ta’sir o‘zkazmoqda. Qadimda nikoh marosimlarida to‘y marosimidan ko‘ra, uning axloqiy, etnopsixologik omillari ustuvorligi kuzatilgan. Nikoh marosimlari tarixiy davrlar almashinuvi natijasida turli zamonaviy ko‘rinishlarni qabul qilib, to‘y marosimlarida esa majburan yoki ixtiyoriy tarzda turli milliy qadariyatlar, yot odatlar kiritib borilgan. Nikoh marosimlari etnoestetik, etnopsixologik ahamiyat kasb etib, undan keyingi to‘y marosimlari zamonaviy unsurlar bilan boyib boraveradi. Demak, nikohning o‘zbek xalqi marosimlariga xos qadriyatlarining mohiyatini anglab yetib, uni asrab qolishimiz lozim.

Kalit so‘zlar: axloq, etnoestetika, oila, nikoh, to’y, madaniyat, turmush estetikasi, ijtimoiy ong.

ЗАДАЧИ ПРЕВРАЩЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СВАДЕБНЫХ ОБРЯДОВ В ЭТИКО-ЭСТЕТИЧЕСКУЮ ЦЕННОСТЬ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Обряды бракосочетания – это способ создания семьи, а свадьба – признак счастья перед этим. Узбекские брачные обряды тесно связаны со свадьбой. В нем современность и традиционализм гармонично влияют на развитие культуры. В древности моральные и этнопсихологические факторы имели большее значение, чем свадебный обряд. В результате смены исторических периодов брачные обряды приняли различные современные формы, а в свадебные обряды насильственно или добровольно привносились различные национальные ценности и иностранные обычаи. Брачные обряды приобретают этноэстетическое и этнопсихологическое значение, а последующие свадебные обряды обогащаются современными элементами. Итак, мы должны понять суть ценностей брака, которые характерны для обрядов узбекского народа, и сохранить их.

Ключевые слова: этика, этноэстетика, семья, брак, свадьба, культура, эстетика жизни, общественное сознание.

TASKS OF TRANSFORMING NATIONAL WEDDING CEREMONIES INTO ETHICAL AND AESTHETIC VALUES IN NEW UZBEKISTAN

Annotation

Marriage ceremonies are a way to start a family, and a wedding is a sign of happiness before that. Uzbek marriage ceremonies are closely related to the wedding. In it, modernity and traditionalism harmoniously affect the development of culture. In ancient times, moral and ethno-psychological factors were more important than the wedding ceremony. As a result of the change of historical periods, marriage ceremonies adopted various modern forms, and various national values and foreign customs were forcibly or voluntarily introduced into wedding ceremonies. Marriage ceremonies acquire ethno-aesthetic and ethno-psychological significance, and subsequent wedding ceremonies are enriched with modern elements. So, we should understand the essence of the values of marriage, which are characteristic of the ceremonies of the Uzbek people, and preserve it.

Key words: ethics, ethnoaesthetics, family, marriage, wedding, culture, aesthetics of life, social consciousness.

Kirish. Yangi O‘zbekistonda jamiyat axloqiy qiyofasini shakllantirish demokratik tamoyillarga asoslanib olib borilmoqda, avvalombor, bozor munosabatlarining yuksak axloqiy madaniyatga asoslanishini yaratish, milliy o‘zligimizni diniy va dunyoviy qadriyatlar bilan uyg‘unligini keng jamoatchilik ongiga yetkazib berish, ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi islohotlarda shaxsning axloqiy dunyoqarashini boy tajriba va ko‘nikmalar bilan qurollantirish dolzarb nazariy-falsafiy masalalardan biriga aylandi. Yangi O‘zbekistonda xalqimiz ongi va hayotidagi oilaviy marosimlarga nisbatan yangicha yondoshuvlar shakllanishi lozim. Bunday yondashuv insonning axloqiy va estetik ong ishtirokisiz, axloqiy va estetik madaniyat ta’sirisiz bo‘lmaydi. Voqelik, jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlar, albatta, axloqiy va estetik tafakkur ishtirokisiz sodir bo‘lmaydi. Voqelik estetik munosabat axloqiy mezonlarni ham talab qiladi, axloqiy mezonlar esa estetik munosabat yo‘nalishini belgilaydi, natijada shaxs ma’naviyatida, madaniyatida jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo‘layotgan jarayonlarga mos va xos xususiyatlar shakllana boradi.

Adabiyotlar tahlili. Yangi O‘zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurish va rivojlantirish jarayonida xotin-qizlarning davlat va jamiyatdagi rolini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu jarayonda ayolning erkak bilan teng huquqliligi, oila va nikohning jamiyatda muqaddasligiga alohida e’tibor berila boshlandi. Milliy nikoh marosimlari va an’analarida ko‘proq ayollarning roli ortib, ularda milliy nikoh marosimlariga yangiliklar olib kirish namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda “Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan xotin-qizlarni e’zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib

qoladi”.[1] Biz azaldan jamiyatda ayollarning hurmat-e’tiborini yuqori o‘ringa qo‘yib, oilada ayolning rolini oshirib, nikoh marosimlarini ko‘proq milliy urf-odatlarga asoslanib bajarishga intilganmiz. O‘zbek qizlarining donoligi va oqilaligi tufayli nikoh marosimlari jarayonida yigitlar qizlarga estetik munosabatda bo‘lishga intiladilar va axloqiy me’yorlar negizida o‘z munosabatini bildirishadi. Jamiyatda mavjud nikoh marosimlarini bugungi kunda iqtisodiy jihatdan kamaytirish, to‘ylarning estetik mohiyati va jozibadorligini kuchaytirish, tartibga solishda barchamiz mas’ulmiz.

Oila a’zolarining oddiy va chiroyli kiyim-bosh tanlab kiyinishi, didli, farosatli bo‘lishi oilaga fayz kiritadi. Turmush estetikasida yoshlarning oila qurish marosimlari katta rol o‘ynaydi. To‘y o‘zbek xalqining jon-dilidan sevuvchi azaliy marosimlaridan biridir. To‘y bo‘ladigan xonadonga barcha mahallalarda to‘ydan oldin qarindosh-urug‘ va qo‘ni-qo‘shnilar yig‘ilib, «maslahat oshi» tashkil qilinadi. To‘yni qanday o‘tkazish, quda tomon bilan qanday muomala qilish, bazmni qanday uyishtirish singari masalalar muhokama qilinadi. To‘y boshlangach, mahalla oqsaqoli tomonidan belgilangan mezbonlar mehmonlarni zavq-shavq bilan kutib olish uchun belni «qamish»dan bog‘lab turadilar. To‘y bo‘layotgan xonadonda quvonch ustiga quvonch, yelib-yugurishlarning barchasi turmush go‘zalligining ajoyib namunasidir.

Insoniyat mavjudligining mazkur falsafiy asosi insoniyatning o‘zini-o‘zi asrash, ko‘paytirish instinktidan o‘sib chiqqan deyish mumkin. Bugun bu instinkt anglangan va ratsional tashkil etiladigan, boshqariladigan, obyektiv va subyektiv ehtiyojlar in’ikosiga aylangan.

Gulga burkangan kelin-kuyovning tavoze ila to‘yxonaga kirib kelishi, karnay-surnay navolari, «To‘ylar muborak» ashulasi, bolalarning shod-u xurramligi, onalarning, yuragi muhabbat zavqiga to‘lgan qizlarning kayfiyati – bularning barchasi yosh kelin-kuyovning eng hayajonli, bir umr esda qoladigan baxtiyor damlari, qolaversa, oila deb atalgan hayotning go‘zal lahzalari hisoblanadi.

Lekin keyingi paytlarda to‘y-hashamlar va ma’rakalarni o‘tkazishda estetik madaniyatni suiiste’mol qilish holatlari uchrab turibdi. Ayniqsa, kelin-kuyov to‘ylarida bu narsa ko‘proq sezilmoqda. Toshkent va Samarqand to‘ylarida kim o‘zarga bo‘layotgan to‘ylar tufayli ko‘proq qiz chiqargan xonadonlar el-yurt, mahalla-ko’y oldida uyalib qolmay deb, qarzga botib qolishmoqda. Natijada qarzga qilingan to‘yning azobini ba’zi oilalar bir necha yil tortishlariga to‘g‘ri kelmoqda. Bu narsa ayrim urf-odatlarni, marosimlarni o‘tkazishda axloqiy-estetik mezon buzilish oqibatida sodir bo‘lmoqda.

«Keyingi vaqtlarda to‘y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni, marhumlar xotiralariga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazishda mamlakatimizning ko‘p joylarida shuhratparastlik, dabdababozlik, isrofgarchilikka yo‘l qo‘yish, el-yurt odatlari va an’analarini mensimaslik, o‘zini ko‘z-ko‘z qilish, atrofda yashayotgan odamlarning hol-ahvolini inobatga olmaslik kabi eskidan qolgan asoratlarga yo‘l qo‘yilmoqda».[2].

Bunday dabdabali marosim va ma’rakalar yoshlar ongiga salbiy ta’sir o‘tkazadi, ularning axloqiy-estetik madaniyati va didining sog‘lom o‘sishiga xalal beradi.

Insonning oliyjanob his-tuyg‘ulari, go‘zal fazilatlarini yuqori qo‘ygan o‘zbek xalqining estetik ideallari, tasavvurlari, tushunchalari xususida bebaho va noyob o‘tmish merosi bor. Unga amal qilish shart, albatta. Lekin shaxsning estetik ideallari, estetik madaniyat tushunchasi har xil bo‘lishi ham tabiiy. Bunday «estetik ideallarning turli kishilarda turlicha bo‘lishi esa tabiiy ravishda inson tabiatining murakkab va ko‘p qirrali ekanligining ifodasidir».[3].

Oilalarda qachonki ideallar mushtarakligi bo‘lsa, qachonki yoshlarning orzu va maqsadlari bir nuqtada tutashsa, bu tutashgan nuqta muhitini farzand deb atalmish mo‘jiza bezab tursa, bunday oilalarning estetik va axloqiy tushunchalarida ziddiyat bo‘lmaydi.

Bugungi kunda nikoh to‘yining azaldan estetik qadriyat sifatida shakllangan dam olish vazifasi mavjud. Dam olish va hordiq chiqarish shaxsning o‘z ixtiyoridagi ishi bo‘lsa-da, u jamiyatdan, ijtimoiy munosabatlarda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlardan tashqarida kechmaydi. Dam olish va hordiq chiqarish shaxs va ijtimoiy taraqqiyot manfaatlari bilan dialektik bog‘liqdir. SHuning uchun uni maqsadli tashkil etish uchun jamiyat va davlat maxsus ijtimoiy-madaniy texnologiya (vositalar, usullar, tashkiliy mexanizmlar majmuasi) yaratgan.[4].

XX asrning mashhur faylasuflaridan biri Erix Fromm inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etib, insonni ziddiyatlar mudom ta’qib etadi, ular ichida qadimgisi uni goh hayvoniy, goh insoniy yashashga majbur etadigan ehtiyojlar o‘rtasidagi ziddiyatdir, demokratik tamoyillarga amal qiladigan, insoniy fazilatlarni, ijodiy xislatlarni rivojlantirishga yordam beradigan hayot sharoitlarini yaratgan jamiyatgina sog‘lomdir,[5] degan xulosaga keladi. Bu o‘rinda u G‘arbda “ommaviy madaniyat”ning destruktiv ta’sirida shakllangan ehtiyojlarni emas, balki har bir shaxsni, individning ichki ma’naviy olamini, undagi ijobiy xislatlarni to‘la namoyon bo‘lishiga yordam beradigan ijtimoiy muhitni, dam olish sharoitini yaratishni nazarda tutadi.[5] Faylasufning fikriga ko‘ra, agar shunday muhit va ruhiy-ma’naviy ehtiyojlarni qondirish imkoni bo‘lmasa, jamiyat ham, shaxs ham destruktiv xatti-harakatlarga, “og‘ir ruhiy og‘ishlarga”,[5] xastalikka yo‘l tutadi.

Tahlil va natijalar. Nikoh marosimlari millatning, xalqning asrlar davomida shakllangan ma’naviy-ruhiy, milliy-madaniy ehtiyojlari va qiziqishlari asosida yuzaga kelgani bois, u ushbu millatning, xalqning farzandlarini befarq qoldirmaydi. An’anaviy qadriyatlarning umrboqiyligi, mustaqillik davrida millatimiz, xalqimiz yoshlarida tarixiy-madaniy merosga, xalq bayramlari, tomoshalari va dam olish an’analariga qiziqish oshganligining negizi ham shundadir.

Dam olish va hordiq chiqarish o‘zaro dialektik bog‘liq rekreativ (psixofiziologik) va ijtimoiy-ma’naviy (psixopedagogik) vazifalarni bajarishga qaratilgandir. To‘g‘ri, dam olish va hordiq chiqarish etnomadaniyatning o‘ziga xos an’anaviy turi sifatida boshqa (masalan, kommunikativ, tarbiyaviy, madaniy-ijodiy, bo‘sh vaqtni o‘tkazish va b.) funksiyalarni ham bajaradi. Ammo dam olish va hordiq chiqarishga qaratilgan tadbirlarda, faoliyat turlarida, ayniqsa, etnomadaniyatga taalluqli xalq bayramlari va to‘ylarda u yoki bu funksiyani boshqalaridan ustun turadi deb asoslash juda qiyin. Shuning uchun dam olish va hordiq chiqarish boshqa funksiyalar bilan uyg‘un keladi. Nikoh marosimlaridagi hordiq chiqarish kishining og‘ir mehnatdan keyingi psixofiziologik, faollikni nofaollik, jismoniy mehnatni aqliy mehnat, aqliy mehnatni xayol, orzu, tilaklar yoki hazil-o‘yinlar bilan almashtirish ehtiyojlari natijasidir.

Xalqimizning gedonistik – dam olish va hordiq chiqarish an’analari keyingi yillarda keskin transformatsiyaga uchramoqda. Ushbu o‘zgarishlar tabiiy holdir, ammo xalq madaniyatidagi o‘z qimmatini yo‘qotmagan dam olish va hordiq chiqarish an’analarini asrash, ulardan kishilarning badiiy-estetik didini shakllantirishda samarali foydalanish ham muhimdir. Shunday ekan, har bir nikoh marosimlarni bachkana xursandchilik, aysh-ishrat, maishatbozlik, tashqi bejirimlik yoki soxta tantanavorlik bilan bog‘lamasdan, go‘zal milliy-badiiy qadriyatlarimiz asosida kamol toptirib borishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, tarixiy va zamonaviy ma’naviy qadriyatlar xalq ruhi va faoliyatiga asabiy emas, zavqiy kayfiyat bersa, insonni

ilhomlantirib, hayotga, mehnatga va farog‘atga chorlasa, jamiyat va shaxs estetik madaniyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanadi. Ma’naviy madaniyatning milliy shakllari orasida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy urf-odatlar, an’ana va qadriyatlar orasida nikoh marosimlari alohida o‘rin tutadi. Ushbu ulkan ma’naviy meros asosida kishilarning o‘zaro munosabatlarida mehr-oqibatni shakllantirish va mustahkamlash azaldan o‘zining samarali natijalarini berib kelgan. Misol uchun, biror-bir qarindoshlarini tanimaydigan o‘spirin dono-katta avlodning sa’y-harakati bilan muayyan to‘y-hasham, maraka, marosim yoxud milliy urf-odatlarga jalb qilinishi natijasida nafaqat o‘z yaqinlarini taniy boshlaydi, balki ularga nisbatan iliq munosabat, mehr tuyg‘ulari yuzaga kelishi ta’minlanadi. Shu sabab, Yangi O‘zbekistonda oila va nikoh bilan bog‘liq axloqiy-estetik qadriyatlar asosida farzandlarimizni ulg‘aytirishimiz lozim.

Yurtimizning har bir hududida o‘ziga xos go‘zal urf-odatlarning axloqiy va estetik xususiyatlari nikoh marosimlarini yanada boyitib, o‘zida ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarni mujassam etgan. Erix Frommning fikricha, “... avvalo XX asrda “muhabbatga munosib” siymoni topishga munosabat keskin o‘zgardi. Viktorian davrida, muayyan tamoyillarga sodiq boshqa qator tamaddunlarda bo‘lganidek, keyinchalik nikohga olib keladigan muhabbat bevosita shaxsiy kechinma bo‘lmagan. Aksincha, yigit va qiz bitishuv asosida nikohlangan – yoki biror-bir nufuzli oilalar yoxud sovchi vositachiligida yoki vositalarsiz nikohlangan. Yigit-qizlar ijtimoiy nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda nikohdan o‘tishgan. Muhabbat esa nikohdan keyin tug‘ilib, kuchayib boraveradi, degan aqida hukmronlik qilgan”.[6] Sevgi va muhabbat asosida nikoh qurish G‘arbda o‘z mohiyatiga – ijtimoiy, huquqiy maqomiga to‘la ega bo‘lgan bir paytda, o‘zbek nikohida sevgi asosida nikohlanuvchilar biroz kamayganini kuzatish mumkin.

Insonlarni sevib va sevilib yashash hayotni chin insoniy va zavqli, huzurbaxsh qiladi. Insonlarni sevish, e’zozlash orqali hayotni sevish, e’zozlash mumkin. Ammo sevilish doimo antropologik va psixologik muammo bo‘lib kelgan. Quyida insonlarni sevish va sevilib yashash murakkab voqeliklar ekaniga ishora qilinadi: “Baxt va muhabbat bir-birini taqozo etuvchi ruhiy hodisalar ekan, ishqi yo‘q odam to‘liq baxtli bo‘lolmagani kabi, muhabbat egasini mutlaq baxtsiz deb bo‘lmaydi. Bizningcha, baxtli bo‘lish uchun kishi ishqi tushgan odami yoki narsasiga, albatta, erishishi shart emas”.[7].

Xulosa. O‘smir yigit va qizlar balog‘at va yetuklik yoshiga yetganidan boshlab bo‘lajak umr yo‘ldoshining sifatlarini xayolan belgilay boshlaydi. Shaxs sifatida ideal obraz qidiradi. Insonlarning bu sifatlarga qarashlari xarakter, olgan tarbiyalari, dunyoqarashlari va qanday qadriyatlarga amal qilishlariga ko‘ra turlichadir. Baxtli hayot moddiy hayotda deb tarbiya olgan bo‘lsa, xuddi shunga intilish yoki haqiqiy baxt sevib turmush qurish, ma’naviy jihatdan yetuk kishiga intilishini ko‘rish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар байрамига бағишланган учрашувдаги нутқи// http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-khal-07-03-2018
2. Каримов И.А. Адолатли жамият сари. -Тошкент: Ўзбекистон, 1998, - Б. 67.
3. Махмудов Т. Гўзаллик ва ҳаёт. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977, - Б. 56.
4. Культурно-досуговая деятельность: перспективы развития и проблемы регулирования. – Свердловск, 1991. -55 с
5. Фромм Э. Мужчина и женщина. –М.: ООО «Фирма Изд-во АСТ», 452.
6. Блез Паскаль, Хосе Ортега де Гассет, Эрих Фромм. Севги санъати. – Тошкент: O’zbekiston. 2011. – Б. 125.
7. Зиямуҳамедов Б. О, ҳазрати инсон: Саодатга эришиш йўллари – Тошкент: «Tamaddun» нашриёти, 2015. – Б.145.